

IJTIMOY MEDIADA TAXDID VA XAVF-XATARLAR

Jo'rayeva Ferangiz Jamshidovna

Buxoro Davlat Universiteti. 1- kurs talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20018797>

Annotatsiya:

Ushbu maqolada globallashtirish davrida ijtimoiy media platformalarining jamiyat hayotiga ta'siri, xususan, foydalanuvchilar uchun kelishi mumkin bo'lgan kiber-tahdidlar va xavf-xatarlar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida, feyk xabarlar tarqalishi, shaxsiy ma'lumotlarning o'g'irlanishi va ijtimoiy muhandislik kabi dolzarb muammolar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada ijtimoiy tarmoqlardan xavfsiz foydalanish madaniyatini shakllantirish, raqamli savodxonlikni oshirish va yoshlarni internetdagi salbiy oqimlardan himoya qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.

Аннотация

В данной статье анализируется влияние платформ социальных сетей на жизнь общества в условиях глобализации, в частности, киберугрозы и риски, с которыми могут столкнуться пользователи. В ходе исследования рассматриваются такие актуальные проблемы, как распространение фейковых новостей, кража личных данных и социальная инженерия. Также в статье выдвигаются практические рекомендации по формированию культуры безопасного использования социальных сетей, повышению цифровой грамотности и защите молодежи от негативных течений в интернете.

Abstract

This article analyzes the impact of social media platforms on social life in the era of globalization, specifically focusing on cyber threats and risks that users may encounter. The research examines pressing issues such as the spread of fake news, identity theft, and social engineering. Furthermore, the article puts forward practical recommendations for developing a culture of safe social media use, increasing digital literacy, and protecting youth from negative influences on the internet.

Kalit so'zlari: ijtimoiy media, kiber-xavfsizlik, dezinformatsiya, media savodxonlik, axborot xuruji, misinformatsiya.

Kirish

Bugungi globallashtirish davrida ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylangan. Har kuni millionlab foydalanuvchilar turli axborotlarni qabul qiladi, ulashadi va muhokama qiladi. Ammo siz har kuni ijtimoiy tarmoqlarda ko'rayotgan ma'lumotlar qanchalik ishonchli ekanligi haqida o'ylab ko'rganmisiz? Aslida, virtual makonda tarqalayotgan har bir axborot ortida muayyan maqsad va ta'sir kuchi yashiringan bo'lishi mumkin. Shu sababli, ijtimoiy tarmoqlarda axborot xurujlari va turli tahdidlar tobora kuchayib borayotgan dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, noto'g'ri ma'lumotlar, manipulyatsiya va kiber hujumlar jamiyat xavfsizligiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ijtimoiy tarmoq qanchalik inson hayotiga kirib borar ekan undagi xavf xatarlar va tahdidlar ham shunchalik yuzaga chiqadi. Xususan, Dezinformatsiya, kiber jinoyatlar, axborot xurujlari, psixologik manipulyatsiyalar, soxta yangiliklar (fake news), misinformatsiya kabilar bugungi kunda asosiy tahdidlardan biri bo'lib qolmoqda.

Dezinformatsiya (Disinformation) – foydalanuvchi shaxslarga yolg'on tasavvurni shakllantirish maqsadida ularga uzatiluvchi xabarni atayin buzib ko'rsatish, yolg'on axborotni

uzatish. Bu axborotning qasddan noto‘g‘ri yoki aldamchi tarzda tarqatilishidir. Dezinformatsiyaning asosiy farqi uning qasddan va maqsadli yaratilishidadir. U odatda ma‘lum bir shaxs, guruh, tashkilot yoki davlatga qarshi qaratilgan bo‘lib, jamoatchilik fikrini o‘zgartirish, aholi orasida ishonchsizlikni yoki qo‘rquvni uyg‘otish, siyosiy yoki ijtimoiy holatni beqarorlashtirish kabi strategik maqsadlarga xizmat qiladi. Dezinformatsiya ko‘pincha murakkab tarmoqlar orqali, botlar, trollar va maxsus tashkil etilgan kampaniyalar yordamida tarqatiladi. Zamonaviy axborot makonida dezinformatsiya keng tarqalib bormoqda. Ayrim sahifalarda mashhur insonlar nomidan soxta tavsiyalar berilishi, masalan, go‘yoki taniqli shifokor ma‘lum bir dori vositasini tavsiya qilgani haqida xabar tarqatiladi. Aslida esa bu ma‘lumot haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi va odamlarni chalg‘itishga qaratilgan bo‘ladi.

Shuningdek, eski voqea yoki boshqa davlatda sodir bo‘lgan hodisa videosi yangidek taqdim etilib, “hozir aynan shu yerda sodir bo‘ldi” degan izoh bilan tarqatilishi ham dezinformatsiyaning yana bir ko‘rinishidir. Bu esa jamiyatda noto‘g‘ri tasavvur shakllanishiga olib keladi. Dezinformatsiya jamiyatda ishonchsizlik, vahima va noto‘g‘ri qarorlar qabul qilinishiga sabab bo‘ladi. Shu bois har bir inson axborotni tekshirib, ishonchli manbalarga tayanishi muhimdir.

“Axborot huruji” bu muayyan kuchlarning o‘z siyosiy maqsad va muddaolarini amalga oshirish yo‘lida eng avvalo mafkuraviy omillar, shuningdek, moddiy va ma‘naviy ta‘sir o‘tkazish orqali kishilar ongi, qalbiga yot g‘oyalarni singdirishni, ularning hissiyotlari, e‘tiqodi, tuyg‘ulariga ta‘sir etishni, turmush tarzi, mentalitetidagi o‘zgarishlarni amalga oshirishni ko‘zlovchi xatti-harakatlar majmuasi tushuniladi. Davlatning o‘z jamiyati xavfsizligini ta‘minlashi vazifasi nuqtai nazaridan olganda, axborot hurujlari axborot xavfsizligini buzish xavfini solgan sharoit va ijtimoiy omillar yig‘indisidir. Bugungi kunda axborot xurujlari jamiyat uchun eng jiddiy tahdidlardan biriga aylanib bormoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan yolg‘on va manipulyativ ma‘lumotlar insonlarning ongiga tez ta‘sir ko‘rsatmoqda. Menimcha, axborot xurujlarining eng xavfli tomoni shundaki, u odamlarni sezilmagan holda boshqarishga, ularning fikrini o‘zgartirishga xizmat qiladi.

Shu sababli har bir insonda media savodxonlikni rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Axborotni bir necha manbalar asosida tahlil qilish va har qanday ma‘lumotga darhol ishonib ketmaslik bugungi davrning zarur talablaridan biri hisoblanadi. Agar jamiyatda axborot madaniyati yuqori bo‘lsa, turli xurujlarning ta‘siri sezilarli darajada kamayadi.

Misinformatsiya ham bugungi axborot makonida keng tarqalgan muammolardan biri hisoblanadi. U ko‘pincha ataylab emas, balki bilmasdan yoki tekshirilmagan ma‘lumotni ulashish natijasida yuzaga keladi. Ammo shunga qaramay, uning ta‘siri juda katta bo‘lib, odamlar orasida tushunmovchilik, noto‘g‘ri qarashlar va hatto vahima keltirib chiqarishi mumkin.

Menimcha fikrimcha, misinformatsiyaning asosiy sababi – bu odamlarning axborotni tekshirmasdan tezda ishonib ketishi va uni boshqalarga ulashishidir. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda bu jarayon juda tez sodir bo‘ladi. Har bir foydalanuvchi o‘zini kichik “axborot tarqatuvchi” sifatida tutayotganini unutmasligi kerak.

Shu sababli, har birimiz axborotga tanqidiy yondashishni o‘rganishimiz zarur. Har qanday yangilikni bir nechta manbadan tekshirish, rasmiy va ishonchli manbalarga murojaat qilish muhim hisoblanadi. Faqat shunda biz noto‘g‘ri axborot tarqalishining oldini olishimiz mumkin.

Aslida misinformatsiya kichik xatolikdek tuyulsa ham, uning oqibatlarini jiddiy bo'lishi mumkin. Uni kamaytirish esa har bir insonning ongli va mas'uliyatli harakatiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Yolg'on axborot (Fake News): Odatda, haqiqatga mos kelmaydigan, lekin rasmiy yangilikka o'xshab ko'rsatiladigan ma'lumotlarni anglatadi. Uning asosiy maqsadi odatda shunchaki shov-shuv ko'tarish, foydalanuvchilarning e'tiborini jalb qilish yoki moliyaviy daromad olish bo'lishi mumkin. Yolg'on axborotni yaratuvchilar ba'zan birovning obro'sini tushirish yoki ma'lum bir siyosiy kuchni qoralash kabi tor maqsadlarni ham ko'zlashi mumkin. U tasodifiy xatolardan farqli o'laroq, qasddan yaratiladi. Yolg'on axborot (fake news) bugungi axborot jamiyatida eng xavfli muammolardan biri hisoblanadi. U ataylab yoki ba'zan noto'g'ri tushunish natijasida tarqatilgan bo'lib, odamlarni chalg'itish, ularning fikri va qarorlariga ta'sir qilishga xizmat qiladi. Fake news ko'pincha ijtimoiy tarmoqlar va internet platformalari orqali juda tez tarqaladi.

Menimcha, yolg'on axborotning eng katta xavfi shundaki, u jamiyatda ishonchsizlikni kuchaytiradi va odamlar orasida noto'g'ri tasavvurlarni shakllantiradi. Masalan, noto'g'ri yangiliklar vahima, qo'rquv yoki asossiz fikrlar paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shu sababli har bir inson axborotni qabul qilishda ehtiyotkor bo'lishi kerak. Har qanday yangilikni tarqatishdan oldin uning manbasini tekshirish, rasmiy va ishonchli axborotlarga tayanish muhimdir. Media savodxonlikni oshirish esa fake newsga qarshi kurashning eng samarali yo'lidir.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, yolg'on axborotga qarshi kurash faqat davlat yoki ommaviy axborot vositalarining emas, balki har bir foydalanuvchining ham mas'uliyatidir.

Globalashuv davrida ijtimoiy media shunchaki muloqot vositasi emas, balki axborot xurujlari va manipulyatsiyalar maydoniga aylanib bormoqda. Maqolada tahlil qilinganidek, dezinformatsiya va kiber-hujumlar jamiyatda barqarorlikni buzish va insonlar ongini zaharlashga xizmat qilishi mumkin.

Shu sababli, zamonaviy yoshlar nafaqat texnologiyalardan foydalanishni bilishi, balki yuksak raqamli madaniyat va media savodxonlikka ega bo'lishlari shart. Faqatgina axborotni tanqidiy tahlil qilish va virtual dunyoda xavfsizlik qoidalariga rioya etish orqali biz o'zimizni va jamiyatimizni salbiy axborot oqimlaridan himoya qila olamiz.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Abdullayeva B.S., Ro'ziyev Y.Z., Ismoilova K.V. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati. Darslik. – Toshkent, 2024.
2. Qurbonaliyeva H.I. “Axborot xuruji” tushunchasi, axborot xurujlarining manbalari, ularning ijtimoiy muhitda amalga oshirish usullari. TDIU katta o'qituvchisi materiallari.
3. Tahirov B.N. Axborot xavfsizligi asoslari. O'quv qo'llanma. – “Fan va ta'lim” nashriyoti, Buxoro, 2022.
4. Ganiyev S.K., Karimov M.M., Tashev K.A. Axborot xavfsizligi. Darslik. – Toshkent: Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, 2017.
5. Raxmatov O.R. Yolg'on axborot, dezinformatsiya va manipulyatsiyaning keng tarqalishi. Ilmiy maqola.
6. <http://ru.wikipedia.org/wiki/>
7. A. Xolmirzayev, "Dezinformatsiya va ijtimoiy tarmoqlardagi axborot xurujlari", 2020.